

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342



Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**Nº 4 (4) - 2024**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна - педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Мұхәйё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;  
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;  
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbanov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i>	
"KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i>	
AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrukh Gulomovich</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i>	
FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i>	
YEVROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Eanova Nilufar Pulatovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKİSTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abdurahimova Saboqhat Erqash қизи</i>	
БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i>	
MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i>	
AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA) .....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i>	
QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI .....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Sultonov Bahodir Fайзуллаевич, Turaeva Gulizahro Kaxhorovna, Norbўtaev Baxtiёр Abdurahimovich</i>	
СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ .....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salieva</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i>	
QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rakhimov Oйбек Bахтиёрович</i>	
СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Xushmuradov Oman Namozovich</i>	
СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i>	
BULUTLI TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH	
YO'LLARI .....	111-125

<i>Fatmaхова Муниса Абдухамитовна</i>	
ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ	
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133

<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i>	
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY	
MEXANIZMNING ASOSIY YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140

#### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i>	
RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA	
TAMOYILLARINING AHAMIYATI .....	141-147

<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i>	
IJTIMOIY TEKNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH	
EVOLYUTSIYASI .....	148-154

<i>Каримова Гулчехра Абдукаримовна</i>	
ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС	
ЖИҲАТЛАРИ .....	155-163

<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i>	
ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA BAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH	
NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168

<i>Muminov Nozim Naimovich</i>	
THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND	
TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175

<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i>	
СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180

<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i>	
SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI .....	181-184

#### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i>	
ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛарнинг	
ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	185-191

<i>Петрухина Наталья Михайловна</i>	
КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО	
СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197

<i>Исаев Оман Рисалиевич</i>	
ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205

<i>Родина Ирина Витальевна</i>	
АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА	
«ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211

<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i>	
THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE	
OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i>	
ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i>	
THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i>	
PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV BAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нулуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i>	
СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Xayrulloeva Sitora Lutfulloevna</i>	
PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i>	
“LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Tukhtayeva Наргисхон Исамутдиновна</i>	
ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i>	
ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbanova Aziza Bozor qizi</i>	
DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i>	
O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i>	
TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i>	
GASTRONOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRONOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330

*Asqarova Madina Boymurod qizi*

KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI ..... 331-334

*Калниязов Есемурат Шамшетович*  
ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ ..... 335-342

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Bahodir To'raev*

HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI ..... 343-351

*Tursoatov Содик*  
РАФБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ ..... 352-357

*Хидиров Фурқат Шуқуруллаевич*  
МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИННИГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ ..... 358-363

*Rahimbaev Уткир Файзуллаевич*  
ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ ..... 364-372

*Tursynbaev Азизбек Халмурзаевич*  
МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ ..... 373-377

*Yakubov Abduraxmon Turayevich*  
TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI ..... 378-382

*Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli*  
YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENTSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA ..... 383-387

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Хайров Расим Золимхон угли*  
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА ..... 388-395

*To'rayev Panji To'xtayevich*  
OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH ..... 396-400

*Xushnazarova Ma'mura Nodirovna*  
TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY FAOLLIKNING AHAMIYATI ..... 401-406

*Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna*  
TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH ..... 407-411

*Turdimurodov Dilmurod Yo'l doshevich*  
SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI ..... 412-418

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i>	
ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ	
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В	
ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i>	
OLIY O'QUV YURLARIDA XORIJY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI	
QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHIYATINI OSHIRISH	
METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i>	
ТАЛАБАЛАРНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ	
МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i>	
MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFNI BOSHQARISH KO'NIKMALARINING	
AHAMİYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i>	
"ELEKTROMAGNETIZM" BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMİYATI	
.....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i>	
BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING	
MAVJUD HOLATINI TAHLILIY BAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i>	
IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i>	
TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O`QITISH	
TEXNOLOGIYASINING SAMARALI JIHATLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i>	
O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY	
FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i>	
TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH	
METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdumannonovna</i>	
MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI	
LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i>	
ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ	
ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Каҳрамонович</i>	
ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО	
МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*  
IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING  
INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*  
ЎҚУВ МАШГУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИХАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА  
АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539

**Turabova Sevara Kattaqulovna,**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
E-mail:[turobova.sevara@mail.ru](mailto:turobova.sevara@mail.ru)

### **ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA BAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Islom diniga oid manbalarida bahs yuritish va dalillash usulining tinglovchilarni ma'lum bir e'tiqodlar, xatti-harakatlar va axloqiy fazilatlarning to'g'ri yoki xatoligiga ishontirishdagi o'rni zamonaviy argumentlash nazariyasi tamoyillari asosida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** bahs-munozara, dalil, tezis, ritorik dalil, Qur'oni Karim, haqiqat, tafakkur, innovatsiya.

---

**Turabova Sevara Kattakulovna,**

associate professor of Termez University of Economics and Service,  
doctor of Philosophy (PhD)

### **METHODS OF ARGUMENT AND DISCUSSION IN ISLAMIC PHILOSOPHY IN THE INTERPRETATION OF MODERN THEORY OF ARGUMENTATION**

**Abstract.** This article presents an argumentative approach to the discussion and evidence of beliefs, actions and moral virtues in the sources of Islamic philosophy. This approach is based on modern argumentation theory, which focuses on the rightness or wrongness of certain beliefs, actions, and moral values in order to persuade an audience.

**Key words:** argument-discussion, argument, thesis, rhetorical argument, Holy Quran, truth, thinking, innovation.

---

**Турабова Севара Каттақуловна,**

доцент Термезского университета экономики и сервиса,  
доктор философских наук (PhD)

### **МЕТОДЫ ДОКАЗАТЕЛЬСТВО И СПОРА В ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ АРГУМЕНТАЦИИ**

**Аннотация.** В данной статье представлен аргументационный подход к дискуссии и доказательства убеждений, поступков и нравственных достоинств в источниках Исламской философии. Этот подход основан на современной теории аргументации, которая ориентируется на правильность или ошибочность определенных убеждений, действий и моральных ценностей, чтобы убедить аудиторию.

**Ключевые слова:** спор-дискуссия, аргумент, тезис, риторический аргумент, Священный Коран, истина, мышление, новаторство.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N22>

**Kirish.** Dalillash – qarama-qarshi fikrlarni isbotlashning maxsus shakli, shuningdek, masalaning to'g'ri yechimini izlashning maqbul usuli sifatida insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridayoq muayyan ijtimoiy va siyosiy vaziyat ta'siri ostida yuzaga kela boshlagan hodisadir. Dalil “arab. دليل – belgi, iz; isbot; sabab. Fikr, mulohaza va shu kabilarni tasdiqlash, ular haqida dalolat beruvchi narsa, isbot, fakt”. [10]

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Shunisi e'tiborliki, “islom ulamolari ilgari surgan dalillash va bahs-munozara uslubi, vazifasi va maqsadiga ko'ra jadal (tortishuv)dan butunlay farq qiladi”. [5] Masalan, XIII asr turk-islom sivilizatsiyasi namoyondalaridan bo'lgan Ashraf Husayn Shamsiddin Samarqandiyning bahs asosida dalillash usuliga oid olg'a surgan qarashlarida, bahsning shunchaki odatiy tortishuv(jadal)dan farqi, uning mantiq qonun-qoidalariga asoslanganligi bilan ham ajralib turadi. Bu usulda bahslashayotgan har ikki tomon biri biridan ustun bo'lishni emas, balki, haqiqatni isbotlashga harakat qiladilar. Muhokamaning bu usulini Muhammad Shamsiddin Samarqandiy o'zining “Bahs-munozara odobi” “Kitob Adab al-Bahs” asarida tizimlashtirgan”. [6]

Dalillash va bahs-munozara qilish ruhiyati islom olaming ham ilk tarixiy bosqichlaridayoq markaziy o'rinni egallab kelganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Binobarin, Islom dinining muqaddas manbasi bo'lgan Qur'oni Karimda dalillash, munozara va so'zlashuv uslubi o'zining keng qamrovlligi, qo'yilgan masalalarning aniqligi bilan ajralib turadi.

Insonning aqliy tafakkuri uchun keltirilgan mantiqiy dalillar bilan bir qatorda Qur'onda tinglovchilarga psixologik ta'sir ko'rsatadigan emotsiyonal dalillar ham mavjud bo'lib, unda muayyan e'tiqod va xatti-harakatlarga emotsiyonal munosabat bildirish yo'li bilan tinglovchilarni belgilangan fikrni qabul qilishga ishontirilish holati kuzatiladi. Shu yo'l bilan insonlarda aqliy qanoat va qalb osoyishtaligi hosil bo'ladi. Bu tuyg'ularni his etgan inson hayotda ruhiy kuch olgan va o'z ishonch-e'tiqodi ortidan ruhiy mo'tadillikga erishgan.

Qur'onda barcha insonlarga, ularning millati, irqi, ijtimoiy kelib chiqishi va ilmiy salohiyati darajasidan qat'iy nazar birdek murojaat qilinganligini kuzatamiz. Ma'lumki, agar murojaatlardagi ma'lumotlar empirik tajribaga va ayniqsa konkret dalillarga asoslanmaydigan bo'lsa, odamlar bunday ma'lumotlarni noo'rin qabul qila boshlagan bo'lar edilar. Shu bois muqaddas manba uning to'g'riliqini tasdiqlovchi dalillar, ya'ni ritorik argumentlar bilan to'yintirilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ritorik argumentlar – tezisning to'g'riliqini isbotlashga qaratilgan nutqiy fragmentlardir. Qur'ondagи ritorik argumentatsiya tinglovchilarni ma'lum bir e'tiqodlar, xatti-harakatlар va axloqiy fazilatlarning to'g'ri yoki xatoligiga ishontirishdagi vosita vazifasini bajaradi. Ushbu dalillarning ritorik ahamiyati shundan iboratki, ular nafaqat Qur'on tezislarning haqiqatini isbotlaydi, balki insonning ma'naviy ruhiy olamiga pozitiv ta'sir ko'rsatadi.

Odatda Qur'on matni ritorik dalillarning barcha arxetiplarini o'z ichiga mujassam qilgan degan fikrlar ko'plab uchraydi. Ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan Imom az-Zarkashiy [3.]. Qur'ondagи dalillar murakkab falsafiy mulohazalar va mantiqiy tuzilmalarga tayanmasligini qo'shimcha qiladi. Olimning fikriga ko'ra, bu holatni ikki xil vaziyat bilan tushuntirish mumkin:

**birinchidan**, Qur'on yuborilgan paytlarda arablar murakkab falsafiy mulohazalar va mantiqiy tuzilmalardan foydalanmaganlar va shu sababli Qur'on tilida arablar nutqining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan. Bu borada Qur'onning Ibrohim surasidagi 4-oyatida shunda keltirilgan: “Biz har bir payg'ambarni (hukmlarimizni) bayon qilib berish uchun o'z qavmining tili bilan (so'zlaydigan qilib) yubordik”. [1]

**ikkinchidan**, falsafiy va mantiqiy mulohazalar o'sha davrda ko'pchilik uchun tushunarsiz bo'lgan, shu sababli falsafiy va mantiqiy dalillarga asosan haqiqatni boshqa yo'l bilan isbotlashning imkonini bo'lmay qolgandagina murojaat qilish tavsiya etiladi.

Qur'on matnini o'rganish shuni ko'rsatadiki, undagi dalillash jarayonida ratsional vajlarga murojaat qilish ko'plab kuzatiladi va biz ularni mantiqiy vajlar deb atashimiz mumkin. Ular, avvalo, aqlning ustuvorligini tan oladigan auditoriyalarga qaratilgan. Masalan, Qur'ondag'i "Tur" surasining 35-36-oyatlarida Yaratuvchining koinotda mavjudligini qo'llab quvvatlaydigan mantiqiy dalilni ko'rib chiqaylik: "Yoki ular hech narsadan (ya'ni, Yaratuvchisiz) yaralib qolganmilar?! Yoki ular o'zları yaratuvchimilar?! "Yoki osmonlar va Yerni ham ular yaratganmi?! Yo'q! Ular (baridir) imon keltirmaslar. [1] Izoh: "ya'ni, atrofida go'zal bog'i bor ulug'vor saroyni ko'rgan aqli odam, hech qachon bu narsa o'z-o'zidan paydo bo'lgan, deb aytmaydi. Saroy o'zini o'zi yaratgan degan taxmin bema'nilikdir. Bu yerda mohir me'morlar, quruvchilar va bog'bonlar ishlashganiga shubha yo'q". Ushbu mantiqdan kelib chiqib, Qur'on odamlarni osmon va yerning Yaratuvchisi borligiga ishontirmaqda. Ushbu tezisni formal mantiqning "Uchinchisini istisno" qonuniga muvofiq ko'rib chiqadigan bo'lsak unga ko'ra "bir mulohazaning chinligidan unga zid bo'lgan boshqa mulohazaning yolg'onligi kelib chiqadi". Tezisdan kelib chiqadigan oqibatning yolg'onligini aniqlash raddiyaning eng mashhur bo'lgan "bema'nilikka chiqarib qo'yish" usulida amalga oshiriladi.

Biz, Qur'on oyatlarida Yaratganning yagonaligini tushuntirib beradigan mantiqiy dalillashning boshqa usuliga ham duch kelamiz. Masalan "Mo'minun" surasining 91-oyatida : "Alloh farzand tutgan emas va U bilan birga biror iloh ham bo'lgan emasdir. Aks holda, har bir iloh o'zi yaratgan narsa bilan(kibrga) ketib, bir-biridan ustun bo'lib olur edi (natijada Yer-u osmon buzilib ketgan bo'lur edi). Alloh ular vasf etayotgan narsadan pokdir" [1] deyilgan. Bu yerda ilgari surilgan tezis qarama-qarshilik metodi asosida isbotlangan. Ya'ni, aytaylik, koinot bir nechta xudolar tomonidan yaratilgan, ularning har biri qudratli va barchaning bo'ysunishini talab qiladi. Bu holda, albatta, xudolardan birining shubhasiz g'alabasi yoki koinotning yo'q qilinishi bilan yakunlanadigan kurash boshlanadi. Boshqacha qilib aytganda, Qur'onda ta'kidlanganidek, yerda va kosmosda ajoyib tartib mavjudligi Yaratganning yagonaligining ishonchli dalilidir.

Qur'onda Allah va payg'ambarlar, farishtalar va shayton o'rtasidagi so'zlashuvlar, qiyomat kuni, savob va gunoh haqida suhbatlar keltirilgan bo'lib, yaxshilik va yomonlik haqida bahslar kuzatiladi. Qur'oni Karimdag'i hukmlarning bayon qilinish usullari, dalillarning keltirilishi, teran tafakkur va nozik his-tuyg'ularni qanoatlantiradigan darajadagi hujjatlarning kuchliligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Ma'lumki, insonlar o'rtasidagi bahs va ixtiloflar xoh diniy, xoh dunyoviy ishlarda bo'lsin, qadimdan davom etib kelayotgan dialektik jarayondir. Zaruriyat va talab-ehtiyoj borki, bahs va ixtiloflar bo'ladi. Bu haqiqat Qur'oni Karimning ko'plab oyatlarida ham ta'kidlanadi. Masalan. "Hud" surasining 118-119-oyatlarida: "Agar Robingiz xohlaganida edi, (barcha) odamlarni bir ummat (bir xil dinga tobe) qilgan bo'lur edi. (Ular) mudom turlicha ( har xil e'tiqodda) bo'lib boraveradilar". [1] Ya'ni agar Allah ixtiyor qilganida edi insonlarning e'tiqodlarini bir xil qilib qo'yar edi. Zero, Rabbimiz bunga qodir. Lekin Rabbimiz bunday qilmadi, aksincha yomon va yaxshini bir-biridan ajratish uchun hayotni ixtilofli qilib yaratdi. Demak dunyo shunday yaratilganki unda insonlar o'z fikrlari, yo'naliishlari, maqsadlari va orzu-umidlari borasida har xil bo'lishda davom etadilar. Fikrimizning mantiqiy davomi sifatida quyidagi "Baqara"

surasining 251-oyatiga ham e'tiborimizni qaratamiz: "Agar Alloh odamlarning birini ikkinchisi bilan daf etib turmas ekan, shubhasiz, Yer fasodga (buzg'unchilik va xarobaga) aylangan bo'lar edi, lekin Alloh (barcha) olamlarga (nisbatan) fazl egasidir" [1] deyiladi. Yuqorida keltirilgan oyatda to'g'ri yo'ltagi odamlarni har zamon va har yerda yomonlarga qarshi kurashishga va har qanday vosita bilan fasod va tug'yon-isyonga qarshi turishga buyurmoqda. Dialektika nazariyasining "Qarama qarshiliklar birligi va kurashi" qonunida [4] ham rivojlanish va taraqqiyotning asosiy regulyatori etib qarama qarshiliklar o'rtasidagi doimiy kurash asoslantirilganligini kuzatamiz.

**Muhokama.** Diniy va dunyoviy ixtiloflarning sabablari turlicha bo'lib, shular orasidan haqiqatga erishish maqsadida sodir bo'ladigan bahslarni misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Bunday ixtiloflarda haqiqatni to'la-to'kis bilish uchun dalil-hujjatlar keltiriladi va bu holat ulamolar tilida bahs-munozara deb nomlanadi. Shuningdek, g'arazli niyatdagi, kibrga ketish oqibatidagi, nodonlig-u ilmsizlik sababidagi ixtiloflar ham bo'ladiki, bu holat ulamolar nazdida manmanlik, kibr, janjal, o'jarlik deyiladi. Ixtiloф sabablaridan yana biri kishining bahsi ixtiloф mavzusini har tomonlama to'g'ri tushuna bilmasligi hisoblanadi. Zero, haqiqatga bo'lган da'veoning ilmsiz kishi tomonidan bir tomonlama talqin etilishida nisbiylik darajasi juda yuqori bo'ladi. Shunday masalalarga oid bahslar borasida imom G'azzoliyning "Ihyo ulum ad-din" kitobida ham quyidagicha fikr bildirilgan, "Tortishayotganlar xatoni aniqlab, haqiqatga intilishlari lozim. Kamchilik yoki xatolik o'zida namoyon bo'lishi yoki u bilan tortishayotganda ko'rinishidan qo'rmasligi kerak. Raqibini dushman deb emas, do'st sifatida ko'rishi kerak. Agar u xatoni ochib bersa va haqiqatni aytsa, minnatdorchilik bildirishi zarur". [4] Zamonaviy argumentlash nazariyasi talqinida ham bahs mavzusining aniqligi uning samarali bo'lishini belgilaydi, deb hisoblanadi. Agar bahs predmeti aniq bo'lmasa, tortishuv behuda ketadi, ba'zi hollarda u axloqiy me'yorlar doirasidan chetga chiqib, o'zaro haqorat qilish darajasigacha yetib boradi. Shuning uchun bahsning maqsadini aniqlash va shundan keyin uning to'g'ri-noto'g'riliги to'g'risida dalilli bahsni boshlash kerakligi talab etiladi.

Imom G'azzoliy shuningdek: "Haqiqatga intiluvchi insofli bo'lishi kerak! Haqiqatni tan olmayotganlar ko'p narsani tushunmaganlari uchun undan uzoqlashmoqdalar" deydi. Imom G'azzoliy o'z mulohazalarini davom ettirib, taassuf bilan shunday fikr yuritadi: "Zamonamizda so'zlashuv odobidan bexabarlarning ko'payib ketgani achinarlidir. Ular o'z qabih niyatlariga yetishish yo'lida turli uslublardan foydalanishadi. Niyatlari – faqat g'olib chiqish, faxrlanish, maqtanish, xolos. Haqiqatni qidirib topish masalasi esa ularni tashvishlantirayotgan narsalarning eng oxirisidir!"

**Natija.** Islom falsafasining mashhur namoyondasi Imom Shofi'iy ham munozara yuritish odobiga doir ko'plab pandi nasihatlar qatorida quyidagicha fikrlarni bildirganlar: "Men bir odam xato qilib qolar, deb hech kutmaganman. Bir kishi bilan suhbatlashganimda, Alloh taolo mening yoki uning tilidan haqiqatni chiqarar, deb umid qilganman. Haqiqat va hujjat keltirganimda, dalilni qabul qilsa, muhabbatim oshgan. Agar kimdir o'sha haqiqatni inkor qilsa va katta ketsa, nazarimdan tushgan va men uni inkor qilganman. Men ilmim bilan insonlarni qoniqtirgan bo'lsam, ilmni faqat Allohdan deb bilganman".

Insonlar o'rtasidagi ixtiloflarning sabablaridan yana biri odamlarning hech bir dalil-hujjatsiz boshqalarning fikriga taqlid qilib mukkasidan ketgan holda ergashib ketishlaridir. Agar Qur'oni Karimga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda ota-bobolariga va o'zlaridan kattalarga ko'r-ko'rona taqlidiy ergashib ketgan g'ofil, johil va adashgan kishilar bayonini uchratsak

bo'ladi. Xususan, Baqara" surasining 170-oyatida: "Ularga (Mushriklarga): "Alloh nozil etgan hukmlarga (oyatlarga) ergashingiz!", deyilsa, ular: "Yo'q, biz ota bobolarimizni ne uzra topgan bo'lsak, o'shanga ergashamiz", deydilar. Ota-bobolari bordi-yu, hech narsaga aqlari yetmaydigan va to'g'ri yo'lidan yurmaydigan bo'lsalar ham-a!" [1] deyilgan. Qur'oni Karim taqlid qiluvchilarga istehzo qilgan holda raddiya beryapti: "agar ota-bobolari ko'p narsaga aqlari yetmaydigan, to'g'ri yo'lni topolmaydigan bo'lsalar ham-a?" Demak, ko'pincha odamlar orasida sodir bo'ladigan tortishuvlar mavzu-mohiyatni, voqelikni atroflicha o'rghanmaslik va tushunmaslik sababidan kelib chiqadi. Shuningdek, ko'r-ko'rona taqliddan yoki hasad va hoy-havaslarga berilib, umum e'tirof etilishi kerak bo'lgan haqiqatdan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yishdan, nodonligi manmanlik sabablardan kelib chiqadi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, bid'atlarga mukkasidan ketishlik, ko'r-ko'rona taqlid qilgan holda ergashish zamonaviy argumentlash nazariyasi talqiniga ko'ra vorisiylik qonuniyatining buzilishini ko'rsatadi va buning oqibatida tanazzul kelib chiqib, rivojlanish va taraqqiyot sustplashadi. Ayniqsa, bu taqlidga o'jarlik, haqni tan olmaslik va hoy-havasga berilish qo'shilsa, tanazzul yanada yiriklashadi. Demak, islom manbalarida keltirilgan ibratli amallar va chaqiriqlar yig'indisidan hosil bo'lgan ilm ma'lum darajada tanqidiy-tahliliy va innovatsion uslubga asoslangan, degan xulosaga borsak o'rnlidir.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islam universiteti, 2012.
2. Falsafa: qomusiy lug'at. – Toshkent: «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2004.
3. Badr ad-Din az-Zarkashi. Al-Burxan fi 'ulum al-Kur'an. T. 1–4. – Beyrut: 1988.
4. Abu Hamid Muxammad al-Gazali at-Tusi. «Ixya ulum ad-din» Tom I. Chast I. – M.: «Nurul Irshad», 2007.
5. Salimova G. Q. Shamsiddin Samarqandiyning "Bahs-munozara odobi" risolasi va unga yozilgan sharhlar //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 8. – B. 264-269.
6. Собрание Восточных Рукописей Академии Наук Республики Узбекистан. Издательство «Фан» АН РУз, 2017 г. Инв №8580/XI.
7. Turabova, S. (2023). O'rta asrlar sharq falsafasi tarixida ilmiy bahs muammozi va uning zamonaviy tafakkur rivojiga ta'siri. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi, (8), 294-298.
8. Kattakulovna, T. S. (2023). The problem of scientific dispute in the philosophy of medieval muslim peoples and its influence on the development of modern thinking. Scientific approach to the modern education system, 2(18), 1-5.
9. Turabova, S. (2023). Talabalarning eristik kompetentligini rivojlantirishda ilg'or xorij tajribalarni implementatsiya qilish imkoniyatlari. TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi, 1(2), 89-93.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***Nº 4 (4) – 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масьулияти чекланган жамияти**

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).